



THE STORY OF “OBID KETMON” PORTRAIT OF AN UZBEK HARD-WORKING FARMER

*4th year student of the Faculty of Mechanical Engineering, Tashkent State
Technical University named after Islam Karimov*

Raimkulov Diyorbek Akhror oğlu,

Abstract: Through the image of Obid Ketmon, the unique character, hard work and life views of the Uzbek peasant are artistically depicted. Although the work was written in accordance with the ideology of that time, it is distinguished by the sincerity of the hero and the correct coverage of the rural spirit.

Keywords: Abdulla Qodiriy, customs, realism, artistic depiction, Uzbek literature, national consciousness, social life, traditions, culture, national heroes, the era of collectivization, the spirit of Uzbekism.

Abdulla Qodiriy 1894 yil 10 aprelda Toshkent shahrida tugʻilgan. XX asr yangi oʻzbek adabiyotining ulkan namoyandasi, oʻzbek romanchiligining asoschisi. 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi. Musulmon maktabida (1904—06), rus-tuzem maktabida (1908-12), Abulqosim shayx madrasasida (1916—17) taʼlim olgan; Moskvadagi adabiyot kursida (1925—26) oʻqigan. Eski shahar oziqa qoʻmitasining sarkotibi (1918), “Oziq ishlari” gazetasining muharriri (1919), Kasabalar shoʻrosining sarkotibi (1920), “Mushtum” jurnali tashkilotchilaridan va tahrir hayʼati aʼzosi (1923—26). “Toʻy”, “Ahvolimiz”, “Millatimga”, “Fikr aylagil” kabi sheʼrlari, “Baxtsiz kuyov” dramasi, “Juvonboz” hikoyasi yozuvchining dastlabki asarlaridir (1914-15). “Uloqda” hikoyasi (1916), “Kalvak Maxzumning xotira daftaridan”, “Toshpoʻlat tajang nima deydir?” (1920) kabi satirik hikoyalarmuallifi. “Oʻtgan kunlar” (1924-26), “Mehrobdan chayon” (1929) romanlari, “Obid ketmon” (1934) qissasi yozuvchining ulkan mahoratini oʻzida mujassam etgan. Abdulla Shunosiyning “Fizika” (1928), N. V. Gogolning “Uylanish” (1935), A. P. Chexovning “Olchazor” (1936) asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan. Abdulla Qodiriy 1926 yilda





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

“Mushtum”da bosilgan “Yig‘indi gaplar” maqolasi tufayli qisqa muddat qamalgan. 1937 yilning 31 dekabrda esa «xalq dushmani» sifatida ikkinchi bor qamoqqa olinib, 1938 yil 4 oktyabrda Toshkent shahrida otib tashlangan. Uning asarlari 1956 yildan boshlab oqlangan. Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti laureati (1991), «Mustaqillik» ordeni bilai mukofotlangan (1994).

Adibning 1932-1934-yillarda zamonaviy mavzsida yozilgan “Obid Ketmon” qissasi 1935-yil alohida kitob holida nashr bo‘ladi. Asardagi Obid obrazi- o‘zbek adabiyotidagi noyob hodisa . Abdulla Qodiriyning “Obid Ketmon” qissasi (1934) kollektivlashtirish davri qishloq hayotini realistik aks ettirgan, mehnatkash dehqon Obidning yangi tuzumga munosabatini ko‘rsatuvchi asardir. Obid Ketmon obrazi orqali o‘zbek dehqonining o‘ziga xos xarakteri, mehnatsevarligi va hayotiy qarashlari badiiy tasvirlangan. Asar o‘sha davr mafkurasi talabi bilan yozilgan bo‘lsa-da, qahramonning samimiyati va qishloq ruhiyatini to‘g‘ri yoritishi bilan ajralib turadi. Uni o‘zbek xalqining mehnat, dehqonchilik madaniyati bobidagi yrtukligi timsoli deyish mumkin. Yozuvchi bu obraz tasvirida o‘sha davrda odat tusiga kirgan tor doiradan ancha chetga chiqib , umuminsoniy qadryatlarni ardoqlash yo‘lidan boradi; xolis turib ijtimoiy hayotning bir qancha tomonlarini haqqoniy ko‘rsatadi. Ichki muammo – ziddiyatlarini ochib beradi, kolxoz tuzumi oxir-oqibatda odamlardagi tashabbusni , shaxsiy egalik , manfaatdorlik tuyg‘usini so‘ndirishini aytadi. Adib 30-yillar davr hodisalarini o‘rtahol dehqon Obid ketmon obrazi vositasida badiiy talqin qilinadi. Qissa o‘zbek qishloqlarini qayta qurish va kollektivlashtirish (kolxoz) jarayonini realistik asosda yoritishga bag‘ishlangan. Obid — sodda, mehnatkash, ketmoni bilan yashaydigan dehqon. Uning obrazi orqali yangi tuzumga bo‘lgan ishonch va o‘zgarishlarga moslashish jarayoni tasvirlangan. Qodiriy qishloq hayoti, kolxozlashishdagi qiyinchiliklar va insoniy munosabatlarni bo‘rttirmasdan, boricha ko‘rsatishga intilgan. Maqsud Shayxzoda ta’kidlaganidek, bu asar o‘zbek





qishloqlarining kollektivlashtirish davridagi ahvolini yoritgan ilk jiddiy realistik asarlardan biridir.

O'sha davrda esa unga barcha asarlarida va «Obid ketmon»da ham kishilarni ijtimoiy sinflarga bo'lib emas, balki ikkita o'zi yasagan sinfga, ya'ni yaxshi va yomonga ajratib tasvirlaganini ro'kach qilib, ta'na toshlarini ota boshladilar. Bu ta'nalar 1989 yilga kelibgina shubha ostiga olindi». Ya'ni «Obid ketmon»ni yangicha nuqtai nazardan talqin etgan, qissa markazida Obid ismli nihoyatda insofli, iymon-e'tiqodli bir inson turganligini ta'kidlaganligi ma'lumdir. Va shu bois, ayrim ehtimollarini hamda sarlavhaning boshqacha variantlarini o'rta tashlaydi. Asarning bu jiddiyatini, so'zga e'tiborini inobatga olish kerak, albatta. Ammo, bizningcha, «Obid ketmon» haqiqati deganda, eng avvalo, qissaning fazilatlarini, yangicha sharoitdagi yangicha talqinlarini nazarda tutgan bo'lsa ajab emas. Qodiriyning mazkur qissasini o'zbek adabiyotidagi birinchi „ishlab chiqarish“ qissasi, Obidni esa birinchi ishbilarmon odam obrazi deyish mumkin. Abdulla Qodiriy bu o'rinda iqtisod, xo'jalik masalalarining bilimdoni, tadqiqotchisi sifatida ham ko'rinadi; asar bosh qahramonining harakteri, ruhiy olami asosan mehnatda, xo'jalik ishlarida ochiladi.

Abdulla Qodiriyning 44 yillik umri, 20 yillik ijtimoiy va ijodiy faoliyat davri keskin kurashlar, ta'qibu tahdidlar ichida o'tdi. Rostgo'y adib sho'ro davri haqidagi badiiy asarlarida, publitsistikasida sho'ro voqeligiga xos ziddiyatlarni, siyosatdagi xato va kamchiliklarni xolis turib ko'rsatishga jazm etdi. Ammo uning bu urinishlari birin-ketin zarbaga uchray boshladi. 1926-yil „Mushtum“da bosilgan „Yig'indi gaplar“ hajviyasidagi tanqidiy mulohazalari uchun „aksilinqilobiy harakat qilganlik“da ayblanib qamoqqa olinadi, turli bo'xtonlar bilan sudlanadi. Sudda u mardona turib o'z sha'nini himoya qiladi. „Obid ketmon“ qissasi ham sho'ro mafkurachilariga ma'qul kelmaydi, keskin tanqidga uchraydi; „ideologik buzuvchiliklar va xatolar“ga to'la, „siyosiy tutuqsiz“ asar sifatida baholanadi. Yozuvchining tarixiy romanlarining esa asosiy mavzusi – millat taqdiri, birligi, el-yurt qayg'usi, mustaqilligi, shaxs erki, ijtimoiy adolat uchun





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

kurash g'oyalari bilan yo'g'rilganligi tufayli ham hukmron mafkuraga zid asarlar bo'lib chiqdi. Millat ruhini yorqin aks ettirgan, xalqning, o'zga millat kitobxonlarining sevimli asarlariga aylangan bu romanlar sho'ro davri siyosati uchun zararli kitoblar sifatida bot-bot qoralandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Qahhor. Asarlar. T.VI. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1970. 411-bet.
2. O'.Nosirov. Ijodkorshaxs badiiy uslub, avtor obrazi. Toshkent: Fan, 1981. 109-110-betlar.
- B.Karim. Dunyo olimlari nigohi. Avulla Qodiriy va germanevtik tafakkur maqola 2016
3. Abdulla Qodiriy. "Mehrobdan chayon" romani. Toshkent. 2019
4. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. Avtor nutqi va personaj nutqi. Toshkent:
5. Bashir. O'zbek adabiyoti.- Qozon, 1929. B.15
6. Ismatulla X. Abdulla Qodiriy abadiyati. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1994-yil 14 oktabr

